



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG'ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 28-iyul

369-11-0-Q/25

Farg'ona viloyati hokimligi

Farg'ona viloyatida ekstremal iqlim sharoitlarida, xususan, havo harorati ko'tarilib ketgan sharoitlarda yo'llarning va yo'l sun'iy inshootlarining texnik holatini saqlab turish to'g'risida

“Yo'l harakati to'g'risida”gi O'RQ-900-sonli Qonunining 15-moddasiga muvofiq, ekstremal iqlim sharoitlarida, xususan, havo harorati ko'tarilib ketgan sharoitlarda yo'llarning va yo'l sun'iy inshootlarining texnik holatini saqlab turish, shuningdek, aholi xavfsizligini ta'minlash, yo'l infratuzilmasini muhofaza qilish hamda transport oqimini samarali tashkil etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiing 2024-yil 31-oktyabrdagi “Avtomobil yo'llari bo'ylab katta hajmli va og'ir vaznli avtotransport vositalarining harakatlanish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonuniga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Avtomobil yo'llari Bosh boshqarmasining kunning ekstremal iqlim sharoitlarida og'ir yuk tashuvchi trasport vositalari xarakatini vaqtincha cheklash to'g'risidagi takliflar inobatga olinsin.

2. 2025-yil 20-iyul sanasidan 20-oktyabr sanasigacha, Farg'ona viloyati hududidan o'tgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalarida og'ir yuk tashuvchi avtotransport vositalarining harakati har kuni soat 08:00 dan 18:00 ga qadar vaqtincha cheklansin.

3. Ushbu chekllov avtomobil yo'llarida tashishda transport vositasining g'ildirak o'qiga tushadigan og'irligi 10 tonna va undan ortiq bo'lgan yuk avtomashinalari, yonginga chidamli bo'limgan yoki muhit uchun xavfli yuk tashuvchi transport vositalari, boshqa maxsus talablarga javob bermaydigan og'ir avtotransportlariga taaluqli etib belgilansin.

4. Quyidagi holatlarda, tez tibbiy yordam, o't o'chirish va favqulodda holatlar xizmatlariga tegishli transport vositalari, kommunal va sanoat xizmatlarini

ta'minlovchi maxsus transportlar, ruxsatnomaga ega bo'lgan mahalliy tadbirkorlik subyektlarining mahsulot yetkazib berish vositalari (faqat maxsus belgilar bilan) mazkur cheklov tatbiq etilmasin.

5. Farg'ona viloyati IIB YHXB (Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi) hamda shahar va tuman hokimliklari, ushbu qaror ijrosini ta'minlash, jamoatchilikka keng tushuntirish ishlarini olib borish, belgilangan hududlarda nazorat punktlarini joylashtirish vazifasi yuklansin.

6. Mazkur qaror Farg'ona viloyati hokimligi axborot resurslari va ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Farg'ona viloyati hokimining o'rinnbosari X.Dolimov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



X. Bozarov